

## O'ZBEKISTONDA TARQALGAN KAMYOB VA YO'QOLIB BORAYOTGAN BALIQ TURLARINING TAHLILI VA MUHOFAZA CHORALARI

**M.Q. Muhammadjonova**

*Toshkent Davlat Agrar Universiteti Baliqchilik yo'nalishi magistranti*

**I.B. Maxmurov**

*Toshkent Davlat Agrar Universiteti Baliqchilik yo'nalishi bakalavr talabasi  
muxlisamuhammadjonovw@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Hozirgi kunda O'zbekiston suv havzalarida 70 dan ziyod baliq turlari uchraydi. Ulardan 18 tasi Qizil kitobga kiritilgan bo'lib, bu turlar muhofazaga muhtoj turlardir. Ushbu maqolada O'zbekiston Qizil kitobga kiritilgan endem relik baliq turlarining son jihatdan kamayish sabablari, ularning nazariy tahlili hamda asrab qolish chora-tadbirlariga oid tavsiyalar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *antropogen, ixtiofauna, endemik turlar, aborigen turlar, Qizil kitob, TMXI.*

**М.К.Мухаммаджонова, И.Б. Махмуров**

**Аннотация.** В настоящее время в водоразделах Узбекистана водится более 70 видов рыб. Из них 18 занесены в Красную книгу и нуждаются в охране. В статье представлены причины сокращения количества эндемичных видов реликтовых рыб, занесенных в Красную книгу Узбекистана, их теоретический анализ и рекомендации по природоохранным мероприятиям.

**Ключевые слова:** антропоген, ихтиофауна, эндемики, аборигены, Красная книга, МСОП.

**M.Kh.Mukhammadjonova, I.B. Makhmurov**

**Annotation.** *Currently, there are more than 70 species of fish in the watersheds of Uzbekistan. Of these, 18 are listed in the Red Data Book and are in need of protection. This article presents the reasons for the decline in the number of endemic relict fish species listed in the Red Data Book of Uzbekistan, their theoretical analysis and recommendations for conservation measures.*

**Key words:** *anthropogenic, fish fauna, endemics, aborigines, Red Data Book, IUCN.*



So'nggi yillarda tabiatdan foydalanishning kuchayib borishi oqibatida, O'zbekistondagi ko'plab baliq turlari kuchli antropogen ta'sir ostida qolib, ularning yashash joylari va soni qisqardi, ba'zilari esa butunlay yo'qolib ketdi. Ayniqsa Orol fojeasi ixtiofaunaga misli ko'rilmagan talofat yetkazdi. Buning natijasida ko'plab baliq turlari xavf ostida qoldi. Misol tariqasida XX asrning birinchi yarmida Orol dengizi mintaqasining endemigi hisoblangan *Acipenser nudiventris* Lovetzky (Orol bahrasi) baliq turini keltirishimiz mumkin [1,2,6,7,8].

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi asosini sug'oriladigan dehqonchilik tashkil etishi sababli oxirgi 10 yilliklar mobaynida sug'oriladigan maydonlarni kengaytirish maqsadida Mirzacho'l, Jizzax, Qarshi va Surxon – Sherobod cho'llari, Farg'ona vodiysining markaziy qismi sug'orish tufayli o'zlashtirilgan, natijada hududlarda ekologik vaziyat tubdan o'zgardi. Tekisliklardagi yirik daryolar o'zanlarida ham tabiiyki o'zgarishlar kuzatildi. Daryolar oqimining sun'iy ravishda o'zgarishi, yirik suv omborlari, irrigatsiya tizimlarining qurilishi, daryolarning yuqori qismlarida suvning tog'-kon sanoati ehtiyoji uchun ishlatilishi, suv havzalarining ifloslanishi va chetdan keltirilgan baliq turlarining salbiy ta'siri mahalliy ixtiofaunaga xavf solmoqda [1,2].

Noyob va yo'qolib borayotgan baliq turlarini himoya qilish uchun avvalambor ularni o'z hududida tarqalishi, populyatsiyalarini holati, qanchalik kamayish xavfida turganini bilish lozim. Zamonaviy ilmiy tadqiqot ishlari, ilg'or informatsion texnologiyalarni tashkil topishi, turli tabiiy landshaftlardagi noyob baliqlar holati haqidagi aniq ma'lumotlarni yetkazishni talab qilmoqda.

Bizning maqsadimiz Qizil kitobga kiritilgan hozirgi kunda son jihatdan kamayib borayotgan baliq turlarini nazariy tahlil qilish va ularni tabiiy rivojlanish holatini o'rganishdan iborat.

Suv havzalarimizda fanga noma'lum bo'lgan noyob baliq turlarimiz juda ko'pli yurtimiz ixtiofaunasi hali to'liq o'rganilmaganligini ko'rsatadi. Oxirgi yillarda Respublikamizda ixtiologiya sohasiga e'tibor kuchaydi [3,4,5]. Ixtiologlarimiz oldida kamyob baliq turlarini chuqur o'rganish, ularni tabiatdagi populyatsiyalarini holatini aniqlash, urchitib ko'paytirish va muhofaza qilishdek muhim masalalar turibdi. Ana shunday noyob har tomonlama o'rganishni talab etadigan va muhofazaga muhtoj baliq turlari O'zbekiston hududida ham yo'q emas.

Hozirgi vaqtda yurtimizda 55 avlod, 17 oila, 13 turkumga mansub 71 ta baliq turlari mavjud. Bulardan 48 tasi mahalliy aborigen turlar, 17 tasi Orol dengizi endemigi, 26 tasi iqlimlashtirilgan turlar va 26 tasi ovlanadigan baliq turlaridir. Shundan O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga 6 turkum, 7 ta oilaga mansub 18 ta (1 ta kenja tur) baliq kiritilgan (2019-yil) [3,9,11,12] (1-jadval).



**O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib borayotgan baliq turlarining kamyoblik darajasi va tarqalish hududi**

1-jadval

	<b>Turkum</b>	<b>Olia</b>	<b>Tur</b>	<b>Kamyoblik darajasi</b>	<b>Tarqalish hududi</b>
1	<i>Acipenseriformes</i>	<i>Acipenseridae</i>	<i>Acipenser nudiventris</i> Steadman, 1928	1(CR)	Amudaryoning quyi o'rta oqimlari
2	<i>Acipenseriformes</i>	<i>Acipenseridae</i>	<i>Pseudoscaphirhynchus schenkoi</i> Kessler, 1872	1(CR)	Sirdaryonong yuqori oqimi
3	<i>Acipenseriformes</i>	<i>Acipenseridae</i>	<i>Pseudoscaphirhynchus mansueti</i> Kessler, 1877	1(CR)	Amudaryo havzasi va Sirdaryo viloyati
4	<i>Acipenseriformes</i>	<i>Acipenseridae</i>	<i>Pseudoscaphirhynchus immanis</i> Bagdanow, 1874	1(CR)	Amudaryo havzasi va Sirdaryo viloyatlari
5	<i>Cypriniformes</i>	<i>Cyprinidae</i>	<i>Ballerus sapa</i> Pallas, 1771	2(VU:D)	Amudaryo va Sirdaryo havzalarining quyi va o'rta oqimlari
6	<i>Cypriniformes</i>	<i>Cyprinidae</i>	<i>Alburnus oblongus</i> Steadman, 1923	2(VU:D)	Chirchiq, Oxangaron daryolarining quyi va o'rta oqimlari
7	<i>Cypriniformes</i>	<i>Cyprinidae</i>	<i>Aspiolucius esocinus</i> Steadman, 1874	1(EN,VU)	Amudaryo va Sirdaryo havzalarining o'rta oqimlari; Qashqadaryo va Zarafshonning quyi oqimi
8	<i>Cypriniformes</i>	<i>Cyprinidae</i>	<i>Luciobarbus hycephalus</i> Kessler, 1872	1(EN)	Amudaryoning quyi o'rta oqimlari; Qashqadaryo va Zarafshonning quyi qismi
9	<i>Cypriniformes</i>	<i>Cyprinidae</i>	<i>Luciobarbus ocephalus</i> Kessler, 1872	2(VU:D)	Amudaryo, Sirdaryo, Qashqadaryo, Surxandaryo va Zarafshon daryolari oqimi
10	<i>Cypriniformes</i>	<i>Cyprinidae</i>	<i>Capoetobrama shakewitschi</i> Kessler, 1872	2(VU:D)	Amudaryoning quyi o'rta qismidan to Zarafshonning quyi va quyi oqimi
11	<i>Cypriniformes</i>	<i>Cyprinidae</i>	<i>Leuciscus caucasicus</i> Steadman, 1928	3(NT)	Amudaryoning quyi o'rta oqimidagi suv havzalari



12	<i>Cypriniformes</i>	<i>Cobitidae</i>	<i>Sabanejewia aralensis</i> Kessler, 1877	3(NT,LC)	Amudaryo, Sirdaryo, Ohangdaryo va Chirchik daryolari yuqori qismidan quyi qismigacha
13	<i>Suliriformes</i>	<i>Sisoridae</i>	<i>Glyptosternon</i> <i>panini</i> Herzenstein, 1889	2(VU:D)	Sheroboddaryo, Surxondaryo, Ohangaron, Chirchik Qoradaryo va Norin daryolari yuqori oqimi
14	<i>Salmoniformes</i>	<i>Salmonidae</i>	<i>Salmo aralensis</i> Berg, 1895	0(EX)	Orol dengizi, Amudaryoning quyi qismi
15	<i>Salmoniformes</i>	<i>Salmonidae</i>	<i>Salmo oxianus</i> Kessler, 1877	2(VU:D)	Amudaryoning quyi qismi; Tanxozdaryoga aylantirilgan, Qoradaryo va Chirchikda iqlimlashtirilgan
16	<i>Gasterosteiformes</i>	<i>Gasterosteidae</i>	<i>Pungitius platygaster</i> Kessler, 1859	3(NT)	Amudaryoning quyi qismi
17	<i>Scorpaeniformes</i>	<i>Cottidae</i>	<i>Cottus jaxartensis</i> Kessler, 1916	2(VU:D)	Chirchiq daryosi quyi qismi
18	<i>Scorpaeniformes</i>	<i>Cottidae</i>	<i>Cottus spinulosus</i> Kessler, 1872	2(VU:D)	Sirdaryo havzasining quyi qismi

Bu baliqlarning noyob baliqlar sifatida Qizil kitobga kiritilganligiga sabab sonining keskin kamayib ketganligi hamda ba'zi baliqlarning yo'qolib ketish arafasidaligidir.

Hozirgi kunda yurtimizda bir nechta noyob baliq turlari maxsus qo'riqxonalarda muhofaza qilinib kelmoqda. Qolaversa *Acipenser nudiventris* Lovetzky (Orol bahrisi), *Pseudoscaphirhynchus fedtschenkoi* Kessler (Sirdaryo kurakburuni), *Pseudoscaphirhynchus hermanni* Kessler (Amudaryo kichik kurakburuni), *Pseudoscaphirhynchus kaufmanni* Bagdanow (Amudaryo katta kurakburuni), *Aspiolucius esocinus* Kessler (Cho'rtansifat oqqayroq), *Sabanejewia aralensis* Kessler (Orol tikanagi) hamda *Salmo aralensis* Berg (Orol sulaymon baliq'i) TMXI (Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi) Qizil kitobiga ham kiritilgan.[1,2,10]

Turlarni saqlab qolish hamda sonini ko'paytirish uchun muhofaza choralari:

- Saqlanib qolgan noyob baliq turlarini topish, ularni qayerda uchrashini belgilab ro'yxatga olish va nima uchun kamayib ketyotganligini aniqlash zarur hamda yashash joylarida maxsus muhofaza choralari joriy qilish;
- Noyob baliqlarning tabiiy ko'payish joylarini muhofaza qilish;




- Topilgan noyob turlarni sun'iy ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;
- Daryo, ko'l va hovuzlarni sanoat korxonalaridan chiqqan zaharli oqava suvlardan va neft quyilishidan saqlash;
- Suv havzalarining ifloslanishini oldini olish, chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ifloslangan suv havzalarini tozalash;
- Har bir baliq maxsus muhofaza chorasini talab etadi, shu bois soni keskin kamayib ketyotgan baliq turlari uchun zudlik bilan muhofaza choralarni ishlab chiqish hamda Qizil kitobga kiritish;
- Tur topilgan joyda populyatsiyalar sonini mukammal o'rganish hamda u joyda suv qo'riqxonalarini tashkil etish;
- Aholi orasida tushuntirish ishlarini olib borish;
- Muhofazaga muhtoj bo'lgan baliq turlarini brokonerlar tomonidan ovlanishini qat'iy qat'iy taqiqlash;
- Yangi turlarni mamlakat hududiga olib kirishdan avval ilmiy asosda o'rganish, ularning noyob hamda mahalliy baliq turlariga xavf darajasini baholash.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Qizil kitobi.2- jild.Toshkent:Chinor ENK,2019-B.106-123.
2. O'zbekiston Qizil kitobi.2-jild.Toshkent:Chinor ENK,2009-B.6-20,93-112.
3. Mirabdullayev I.M.,Kuzmetov A.R. O'zbekiston baliqlari xilma-xilligi 2020-B.110.
4. Sheraliev B., Allayarov S., Peng Z. First records of *Gobio nigrescens* and *Gobio sibiricus* (Cypriniformes:Gobionidae) from the Amu Darya River basin, Uzbekistan.J. Appl. Ichthyol. 2020. V. 36. P. 235-239.
5. Sheraliev B., Peng Z. Complete mitochondrial genome sequence and phylogenetic position of the Amu Darya sturgeon, *Pseudoscaphirhynchus kaufmanni* (Acipenseriformes: Acipenseridae).J. Appl.Ichthyol. 2020. V. 36. P. 389–392.
6. Андреев Н.И. Гидрофауна Аральского моря в условиях экологического кризиса. Омск: Изд-во ОмГП, 1999. – 454 с
7. Богданов, О. П. Животные Узбекистана.Ташкент : Укитувчи, 1983. – 15–42 с.
8. Цепкин, Е. А. Об аральском лососе *Salmo trutta aralensis* Berg. Е. А. Цепкин.Вопр. ихтиологии. – М. : Наука, 1987. – Т. 27,вып. 4. – 688–690 с.





9. Yuldashev M.A., Solihov T.V., Komilov B.G. O'zbekiston baliqlari. Toshkent: Gold-Print Nashr, 2018. B. 180.

10. Froese R., Pauly D. (Editors). FishBase.World Wide Web electronic publication. 2020. [www.fishbase.org](http://www.fishbase.org), version (04/2020).

11. O'zbekiston Biologiya Jurnal. Toshkent. (5). 2020. B.43-49.

12. International scientific journal: The Way of Science. Volgograd. 5(15). 2015. P.28-30.

